



**SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SAMARQAND  
VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**


**2023-YIL  
YANVAR-NOYABR**

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Samarqand viloyatida jami **8 937,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **108,6 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari tarkibi, foizda


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar hajmidan shakllanadi.




**Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar,  
2023-yil 1-dekabr holatiga, birlikda**



**Hududlar kesimida**



**Yillar kesimida**



Qurilish sohasi viloyatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda 72,4 % ni tashkil etdi.

## Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

	Holatiga:		O'tgan yilga nisbatan, %
	2022-y.01.12	2023-y. 01.12	
<b>JAMI</b>	<b>3 527</b>	<b>2 553</b>	<b>72,4</b>
Samarqand sh.	1 205	823	68,3
Kattaqo'rg'on sh.	139	106	76,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	169	122	72,2
Bulung'ur	79	61	77,2
Jomboy	144	111	77,1
Ishtixon	143	94	65,7
Kattaqo'rg'on	145	122	84,1
Qo'shrabot	80	68	85,0
Narpay	87	73	83,9
Payariq	302	219	72,5
Pastdarg'om	343	202	58,9
Paxtachi	78	71	91,0
Samarqand	156	135	86,5
Nurobod	71	59	83,1
Urgut	237	166	70,0
Toyloq	149	121	81,2



# Hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalar ulushi, 2023-yil 1-dekabr holatiga, foizda




**Samarqand sh. 32,2**



**Payariq t. 8,6**



**Pastdarg'om t. 7,9**




- Samarqand sh.
- Kattaqo'rg'on sh.
- Oqdaryo t.
- Bulung'ur t.
- Jomboy t.
- Ishtixon t.
- Kattaqo'rg'on t.
- Qo'shrabot t.
- Narpay t.
- Payariq t.
- Pastdarg'om t.
- Paxtachi t.
- Samarqand t.
- Nurobod t.
- Urgut t.
- Toyloq t.

## Qurilish ishlari, 2023-yil yanvar-noyabr oylari uchun

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m	Shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>8 937,9</b>	<b>1 475,7</b>	<b>6 651,7</b>	<b>810,5</b>
Samarqand sh.	2 570,9	113,4	2 308,2	149,3
Kattaqo‘rg‘on sh.	123,0	11,3	81,7	30,0
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	660,8	9,5	602,8	48,5
Bulung‘ur	220,2	24,6	151,0	44,6
Jomboy	367,0	0,0	329,6	37,4
Ishtixon	426,3	8,4	380,3	37,6
Kattaqorg‘on	562,1	0,0	521,7	40,4
Qo‘shrabot	191,5	18,1	126,9	46,5
Narpay	219,7	4,5	180,5	34,7
Payariq	630,8	89,8	491,0	50,0
Pastdarg‘om	753,9	407,1	299,2	47,6
Paxtachi	163,3	1,9	123,4	38,0
Samarqand	400,0	14,4	325,2	60,4
Nurobod	109,7	17,8	52,5	39,4
Urgut	465,5	15,6	385,9	64,0
Toyloq	1 073,2	739,3	291,8	42,1



**2023-yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 475,7 mlrd. so‘mni, 2022-yilning mos davriga nisbatan 89,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16,5 % ni tashkil etdi.**




 *umumiy hajmdagi ulushi, %*

**MA'LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng ko'p ulush Toyloq tumani (50,1 %), Pastdarg'om (27,6 %) va Samarqand shahrida (7,7 %) to'g'ri kelmoqda.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 74,4 % to'g'ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 7,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 121,6 % ga o'sgan holda 6 651,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi, foizda



74,4

2023-yil  
yanvar-noyabr


67,1

2022-yil  
yanvar-noyabr



**MA'LUMOT UCHUN:** Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush Samarqand shahrida (2 308,2 mlrd. so'm yoki umumiy hajmning 34,7 %), Kattaqo'rg'on tumani (521,7 mlrd. so'm yoki 7,8 %), Payariq tumani (491,0 mlrd. so'm yoki 7,4 %)ga to'g'ri keldi.

**Bajarilgan qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning ulushi 9,1 % yoki 810,5 mlrd. soʻmni, 2022-yilning mos davriga nisbatan 71,0 % ni tashkil etdi.**



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hamda ulushi, foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **193,3** mlrd. soʻmlik hamda nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **8 744,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,2 %** va **97,8 %** ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-noyabr



davlat mulki

2023-yil yanvar-noyabr



nodavlat mulk

**2023-yil yanvar-noyabr oylarida umumiy hajmdan yangi  
qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari hajmi va ulushi,**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **67,8 %** yoki **6 061,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**24,3 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 475,7** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **24,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **3 836,4** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **63,3 %** ni tashkil etdi.

**63,3 %**

**12,4 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **749,4** mlrd. soʻm yoki ularning jamgʻa nisbatan ulushi **12,4 %** ni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2023-yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘sish sur‘ati, foizda	Ulushi, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>8 937,9</b>	<b>108,6</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh.	2 570,9	102,2	28,7
Kattaqo‘rg‘on sh.	123,0	103,6	1,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	660,8	103,9	7,4
Bulung‘ur	220,2	108,5	2,5
Jomboy	367,0	102,4	4,1
Ishtixon	426,3	106,0	4,8
Kattaqo‘rg‘on	562,1	245,3	6,3
Qo‘shrabot	191,5	109,3	2,1
Narpay	219,7	104,7	2,5
Payariq	630,8	107,8	7,1
Pastdarg‘om	753,9	108,3	8,4
Paxtachi	163,3	106,8	1,8
Samarqand	400,0	105,2	4,5
Nurobod	109,7	122,8	1,2
Urgut	465,5	102,9	5,2
Toyloq	1 073,2	105,0	12,0



**Ma‘lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bu, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2023-yil  
yanvar-noyabr

2022-yil  
yanvar-noyabr

0

Ulushi, foizda

25,8

64,7

48,5

35,3

25,7



**Yirik qurilish  
tashkilotlari**



**Norasmiy  
sektor**



**Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar**

2023-yil yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 64,7 % ni, norasmiy sektorning ulushi esa 35,3 % ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,2 % ni, shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 76,8 % ni tashkil etdi.



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi barchasi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 31,4 % punktga ko'payishi kuzatildi.



● Yirik qurilish tashkilotlari

● Kichik korxonalar va mikrofirmalar

● Ulushi, foizda

● Ulushi, foizda

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (66) 235 60 82